



OLIY TA'LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASB MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Razzaqov Baxtiyor Xabibullayevich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak texnologik ta'lim fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatini tubdan isloq qilish va kasbiy kompetentligini oshirish ularga qo'yilgan talablar xaqida tushuncha berilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, texnologik ta'limi o'qituvchilarini taylorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Kalit so'zlar: pedagog, kompetensiya, kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, integratsiya, modernizatsiya, psixologik-pedagogik, mexanizm, kommunikativ, o'quv reja, o'quv dastur.

KIRISH: Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrleshga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Hozirgi davrda ishlab chikarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro'yobga chiqarish O'zbekistonning xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda shaxsiy insoniy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda xar bir bo'lajak o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muxim talabidir. Texnologik ta'lim o'qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Texnologik ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta'lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon texnologik ta'lim fani o'qituvchisini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.





ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida aloxida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi. Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va dalillarni taxlil etish texnologik ta'limi o'kituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda bir qator qaramaqarshiliklar mavjudligini ko'rsatdi,xususan: - Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining yetuk mutaxassis ma'lumoti darajasi bilan Davlat ta'lim standartining modernizatsiyalashgan mazmuni va xajmiga qo'yilayotgan me'yoriy talablar hamda uning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasi o'rtasida; - Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida; - O'qituvchi shaxsi va uning kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan talabani bo'lajak o'qituvchi sifatida tayyorlash jarayonini rivojlantirish mexanizmi hamda qonuniyatları o'rtasida;- Pedagogik turkum fanlarning texnologik ta'limi o'qituvchisi shaxsiy hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasida; - Ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanib borayotgan jamiyatning mahoratli pedagog shaxsiga nisbatan ortib boruvchi talablari bilan texnologik ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirish asosiy qismining o'z-o'zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritishga tayyor emasliklari o'rtasidagi ziddiyatlar kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy kompetentliklarini shakllantirishdan iboratdir. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida texnologik ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida texnologik ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan texnologik ta'limi o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash



dolzarb vazifa bo'lib kelmokda. Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda bo'lgan ta'limgaz mazmunini bevosita o'rganishi shuni ko'rsatdiki, g'arb mamlakatlarida egallaydi. Respublikamizning milliy ta'limgaz tizimi mohiyatiga ko'ra ta'limgaz mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakaga asoslanadi. Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik taxliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglesh mumkin. Kompetentlik talaba tomonidan aloxida bilim va malakalarini egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik - bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur fanda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari hamda kasbiy sohaning tayanch talablarini sifatida shakllantiriladi. Ta'limgaz mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruxlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etib o'tamiz: - tayanch kompetentlik (ta'limgaz gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko'ra); - fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o'quv fanlari va ta'limgaz bloklarining ma'lum doirligiga ko'ra); - bitta predmet(fan) bo'yicha kompetentligi (maxsus o'quv fani doirasida aniq va ma'lum imkoniyatga egaligiga ko'ra). Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limgaz har bir bosqichi uchun ta'limgaz bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limgaz asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida xayotiy ko'nikmalarni ushbu nuktai nazardan ular kuyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

1. Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu talabaning qadriyatli yo'naliшlari bilan bog'liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil xayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq kompetentlik, u talaba uchun o'quv va boshqa vaziyatlarda o'zini aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. Talabaning individual ta'limgaz yo'naliшhi va uning xayotiy faoliyatining umumiyligi dasturi ana shu kompetentlikka bog'liq.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Talaba chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo'lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar hususiyatlari, inson va insoniyat xayotining ma'naviy-ahloqiy asoslari, oilaviy va



ijtimoiy an'analarning madaniy assoslari, inson xayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtini samarali tashkil etish usullarini bilishi.

3. O'quv-bilish kompetentligi. Talabaning o'rganilayotgan aniq ob'ektlar bilan bog'lik mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O'rganilayotgan ob'ektlarga nisbatan talabalarni kreativ ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandard vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

4. Axborot olish kompetentligi. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, taxlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

5. Kommunikativ kompetentlik. Ta'lif oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rinni tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruxlarda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

6. Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik fukarolik (fukaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeyini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash (xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni taxlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

7. Amaliy faoliyatga oid kompetentlikda bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko'chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalari tushuniladi.

XULOSA: Mutaxassisni tayyorlashning bo'lajak kasbni egallash bo'yicha o'quv va bilish faoliyatini o'z ichiga oladigan me'yoriy modelini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. U oliy ta'lif muassasasi bitiruvchisi tegishli yo'nalish va tayyorgarlik darajasining malakaviy xarakteristikasida ifodalangan va ilmiy asoslangan bilim, ko'nikma va malakalar shaxsning kasbiy muhim xislatlari tarkibini aks ettiradi. Jumladan, texnologik ta'lifi yo'nalishi bo'yicha o'qituvchi malakasini olgan oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi: davlat ta'lif standartlari talablariga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib borishga tayyor bo'lishi, yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta'minlaydigan zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi, ta'lif dasturlarini ishlab chiqishda ishtiroy etishi, ularni o'quv rejasi va o'quv jarayoniga muvofiq ravishda to'la xajmda amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lishi, ta'lif





oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat etishni tashkil etishi, olingen bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga ularni tayyorlashi va ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi, aniq o'quv fani o'quv-metodik jihozlanishining bazasini yaratishi; ta'lim muassasasining ilmiy-metodik faoliyatida ishtirok etishi, sinf raxbari vazifasini bajarishi, ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ishni tashkil etishi va utkazishi, ukuv rejalarini va dasturlarining ta'lim oluvchilarning huquqlari va erkinliklariga rioya etishi, o'z kasbiy malakasini oshirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.I.Karimov. M.X.Shoxmirzayev. Texnologiya fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma-Tashkent. ToshMU "Universitet" nashiriyyoti 2020-yil. 190 b.
2. Razzoqov B.X. Milliy qadriyatlar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasb madaniyatini shakllantirish. Mug'allim ham uzliksi bilimlendirio'. Nukus- 2021. № 3/3. 52-54 b.
3. Bakhtiyor.Kh.Razzokov. The System Of Formation Of Professional Culture Of Teachers Of Future Technological Education Through National Values. Journal of Positive School Psychology 2022.Vol.6.No.4.1659-1665. <http://journalppw.com>
4. Razoqov B.X. Mutalipov R.R. "BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH" Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal «VESTNIK НАУКИ» № 12 (45) T.3 2021
5. Razoqov B.X. Mutalipov R.R. "PROFORIYENTATSIYA STUDENTOV NA OSNOVE NATSIONALNOY PROGRAMMЫ" Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal, № 11 (99), 2021
6. Razoqov B.X. Raximov B.X. "BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI KASB MAXORATINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIVLIK" Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal «VESTNIK НАУКИ» № 2 (47) Tom-2. 2022
7. Razzokov B.X. Yokubjonova M. H. "FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS FOR TEACHERS" ISSN 2770-0003 Volume 7 Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2022
8. V.T.Rajapov. M.M.Ahmedov. Z.A.Teshaboyev. O'qitish jarayonida tashkiliy va innovatsion sinf-dars shakillaridan foydalanish. Uslubiy tavsiyanoma. FVPHQTMOH markazi. 2021.-67 b.
9. I.I.Karimov. D.X.Mamatov. Umumta'lim mакtablaridatexnologiya fanini o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalarini qollash. O'quv- uslubiy qo'llanma Farg'ona. "poligraf Super Servis" MCHJ 2021 yil.-218 b.
- 10.B.Rahimov.F.Ergashyev.G`Hudoyberdiyev. Uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirish masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari BuxDU. 2017 yil 14-15 aprel



11.B.Rahimov.Uzluksiz ta'lif tizimida ilmiy-ijodiy ishlarni samarali tashkil etish mazmuni Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 1-tom. 10-12 betlar. Nukus. 2019 y

12.B.Rahimov.B.Nazarova Sh.Yo'ldashev. Boshlag'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilarni milliy hunarlarga yo'naltirishga tayyorlash texnologiyasi. Ta'lif, fan va innovatsiya. Ilmiy-uslubiy jurnal. №2 T. 2021. 53-57-betlar.

13. B.Rahimov. Yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirishda modulli texnologiyalardan foydalanish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. UZPFITI. 2018 yil avgust

14. B.X.Rahimov.M.T.Xodjiev.F.G.Sharipov. Umumiyy pedagogika. Darslik. Toshkent. 2020 yil

15. O.Qo'sinov.B.Olimov.Texnologiya fanini o'qitishning uzluksizligi va uzbekligini ta'minlash. «Innovatsion ta'lif: xalqaro tajribalar, muammo va yechimlar» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN. TOSHKENT SHAHRIDAGI YODJU TEXNIKA INSTITUTI 2021

16. B.Olimov. TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI «INNOVATION G'OYALAR, ISHLANMALAR AMALIYOTGA: muammolar, tadqiqotlar va echimlar» 2021 yil 21 aprel, Andijon Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman

17.B.U.Olimov.I.T.Uluxanov.M.O.Turg'unpo'latov. Kadrlar tayyorlashda ta'lif-tarbiya sifatini oishirishning samarali yo'llari. Ilm sari ilk qadam. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. 82 bet.Toshkent – 2016 yil